

Orolbo‘yi hududlarida “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish

Orol fojiasi nafaqat Qoraqalpog‘iston Respublikasi, balki butun Respublika tabiatiga ta‘sir etib, qishloq xo‘jaligi ishlab-chiqarishiga va chorvachilik hayvonlarining yem-xashak bazasini tashkil etishga salbiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. Bu tuproq sho‘rlanishiga, hosildorlikning pasayishiga va yaylov biologik xilma-xilligining buzilishiga olib keladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Turkmanboshi shahrida “Orolni qutqarish” xalqaro jamg‘armasi tashkilotchilari kengashi rahbarlari yig‘ilishidagi ma‘ruzasida Orol dengizining qurib qolgan qismini cho‘l o‘simliklari bilan boyitish, shu bilan birgalikda cho‘l ozuqa ekinlari bo‘yicha regional markaz tashkil etish hamda ozuqaga boy yaylovlar tashkil qilish, chorvachilikni rivojlantirish, aholini ish bilan bandligini amalga oshirish nazarda tutilgan.

Shuni qayd etish kerakki, bu yo‘nalishda O‘zR FA Qishloq xo‘jaligi ilmiy markazining Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi instituti tomonidan qator ishlar amalga oshirilgan bo‘lib, 15 ta yuqori sifatli hosildorligi va ozuqa to‘yimligi cho‘l sharoitiga mos o‘simliklar navlari tashkil etilgan.



Joriy yil boshida Orol hududini ko‘kalamzorlashtirish, ya‘ni Orolbo‘yi hududlarida “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish maqsadida u yerning tuproq iqlim sharoitiga moslashadigan cho‘g‘on, olabuta, kabi cho‘l-ozuqabop o‘simliklar urug‘lari Qorako‘lchilik va cho‘l ekologiyasi instituti tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq tumanida yaylov barpo etish uchun, jami 500 kg cho‘l ozuqabop o‘simliklari urug‘lari yuborildi. Shundan 120 kg chogon o‘simligi urug‘lari va 380 kg olabuta o‘simligi urug‘lari, Cho‘l ozuqabop o‘simliklari urug‘chiligi markazi uchun jami 4438 kg cho‘l ozuqabop o‘simliklar urug‘lari - 1300 kg olabuta va 3138 kg cho‘g‘on o‘simligi urug‘lari yetkazib berildi

Cho‘g‘on (Halothamnus subaphylla Botsch) - sho‘radoshlar oilasiga mansub bo‘lib, ko‘p yillik chala

buta hisoblanadi. Cho'g'onning "Jayxun" navining bo'yi 150-170 sm. Barglari bo'g'in-bo'g'in, tez sinuvchan, mo'rt, oqish rangda, gullari boshhoqsimon, uzun to'pgul, novdalari yashil, urug'lari jigarrang qonatchalar bilan o'ralgan. Quruq xashak hosili 15 s/ga. Urug' hosili 3 s/ga. 100 kg pichanida 42 ozuqa birligi bor. Quruq xashagida 20 % protein, 2,5 % yog' mavjud. Vegetatsiya davri 240 kun. Cho'g'onning "Jayxun" navi o'ta qurg'oqchilikka, sho'rlanishga chidamli. Bu nav tuproq tanlamay qumda, gipsli cho'lda va adirlarda ham o'sishga moslashgan.



Ko'p yillik **Olabuta (Atriplex undulate)** - sho'radoshlar oilasiga mansub, yarim butadir. Olabutaning "**Yagona**" navining bo'yi 100-120 sm. Vegetatsiya davri 250-280 kun. Chorva hayvonlari tomonidan yil davomida yaxshi yeyiladi. Quruq xashak hosili 12-15 s/ga. Urug'i hosili 2,5-3,5 s/ga. Olabutaning "Yagona" navi yaylovlarning sho'rlangan maydonlariga ekish uchun tavsiya qilinadi.

